



## The Role of The Educational Program in The Implementation of The Credit-Module System of Education in Higher Education Institutions of Our Country

**O'sarov Dilshodjon G'ulom o'g'li**, Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology of Gulistan State University,  
**Mamorasulov Sobirjon Odiljon o'g'li** Gulistan State Pedagogical Institute, 2nd year Master of Pedagogy and Psychology  
E-mail: [dilshodjonosarov7@gmail.com](mailto:dilshodjonosarov7@gmail.com)

**Abstract:** This article talks about the credit-module system of higher education in our country, its introduction, as well as the organization of the educational program structure in this educational system. This article can be used by representatives of the relevant field as theoretical and methodological information.

**Key words:** Credit Module System Of Education, Implementation In Higher Education Institutions, Structure Of The Educational Program, Achieving Transparency In Education, The Place Of The Educational Program In The Study Load Of Education, Education the importance of the program.

## Yurtimiz Oliy Ta'lim Muassasalarida Ta'limning Kredit- Modul Tizimini Joriy Etishda Ta'lim Dasturining O'Rni

**O'sarov Dilshodjon G'ulom o'g'li**, Guliston davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi,  
**Mamorasulov Sobirjon Odiljon o'g'li**, Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistr  
E-mail: [dilshodjonosarov7@gmail.com](mailto:dilshodjonosarov7@gmail.com)



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz oliy ta'limning kredit-modul tizimi haqida, uning joriy etilishi yoritilganligi bilan bir qatorda ushbu ta'lim tizimida ta'lim dasturi tuzilmasini tashkil etish haqida so'z boradi. Ushbu maqoladan tegishli soha vakillari nazariy uslubiy ma'lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ta'limning kredit modul tizimi, oliy ta'lim muassasalarida joriy etilishi, ta'lim dasturi tuzilmasi, ta'limda shaffoflikka erishish, ta'limning o'qish yuklamasida ta'lim dasturining o'rni, ta'lim dasturi ahamiyati .

Bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda, jumladan oliy ta'lim tizimida ham, mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor qurish va rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishish uchun ko'plab islohotlar va ishlar amalga oshirilmoqda. Kelajak avlodning bilimli va barkamol bo'lib yetishishi ta'minlash maqsadida mamlakat ta'lim tizimiga yangi ta'lim texnologiyalari, xorij tajribalari joriy etilmoqda. Hususan, 1999 yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan, ayni paytda dunyoning 48 ta mamlakati ishtirokchisiga aylangan Bolonya deklaratsiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi va ta'lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish borasida ishlarning boshlab yuborilishi mamlakat oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'zgarishlar davrini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga ko'ra 2017-2021 yillarda oliy va oliy ta'limdan keying ta'lim tizimida O'zbekistonning Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilishiga shart- sharoitlar yaratildi va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etildi [1].

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 Farmoni imzolandi [2]. Prezidentimizning ushbu farmoni asosida "Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar Respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi





(OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim muassasasini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. [4-42b]

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi: professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha 2024-yil 1-yanvardan boshlab: kredit-modul tizimi joriy etilishi orqali malaka oshirish kurslarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari takomillashtirilishini va tinglovchilarning muayyan modul (fan) bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasi kreditlar asosida hisoblanishi belgilangandi. Shu qatorida rahbar va pedagog xodimlarning malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash imkoniyatini yo'lga qo'yilishi hamda har o'quv kursi yakuni bo'yicha ta'lim natijalarini monitoring belgilangan. Hususan, nizomda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibi belgilanganligi e'tirof etilgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish barcha oliy ta'lim tizim eggallashi sxemaga muvofiq amalga oshirilishi belgilab o'tilgan. O'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma'lumotlari ko'rsatib berilgan. [3- 17b]

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'limning kredit- modul tizimida ta'lim dasturi tuzilmasi quyidagicha ko'rsatib o'tilgan: Birinchidan: O'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkinligi belgilangan;

Ikkinchidan: Ta'lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatilish takidlangan; Uchinchidan: Talabalarining ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkinli ko'rsatilgan;





# **PEDAGOGICAL CLUSTER**

## **JOURNAL OF PEDAGOGICAL DEVELOPMENTS**



Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index>

To'rtinchidan: Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun oliy ta'lim muassasasining tegishli bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul boshqarma yoki bo'limi, guruh murabbiyi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntirili e'tirof etilgan.

Beshinchidan: Oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shartligi shuningdek, ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozimligi belgilangan.

O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi. Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi lozimligi qati'iy tasdiqlangan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda xulosa qilishimiz mumkinki yurtimiz O'zbekiston Respublikasi OTMLarida kredit-modul tizimini joriy qilish va uni rivojlanishi OTMLarida yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni o'z mutaxassisliklari bo`

yicha yetuk kadr bo'lib, ishga joylashishida, professor – o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga, OTMLarida o'quv-moddiy bazani rivojlantirishga, akademik mustaqilligini ta'minlashga, OTMLarida talaba, professor-o'qituvchilarni o'zaro almashishda (chet el OTMLari bo'ycha ham) qulayliklar tug'diradi va boshqalarni amalga oshirishda katta yordam beradi. Shu bilan birga Kredit-modul tizimining o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu jarayonning ta'lim natijalariga yo'naltirilganligidir. Ya'ni, kredit-modul tizimida ta'lim mazmuni "ta'lim natijalari" asosida rejalashtirilishi, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, talabalarga o'qitiladigan fanlar, ta'lim dasturi tuzilmasi va ularning mazmuni, muayyan o'quv yuklamalari belgilab qo'yilgan. Hususan, talabalar fanlarni ma'lum darajada o'zlari tanlash huquqiga ega bo'lish orqali o'zlarining o'quv dasturiga ega bo'lishadi. Ta'limdagi bu hususiyat orqali talabalar o'zlari qiziqqan fan va yo'nalishlarni chuqurroq o'rganishi, talabalik davridan samarali foydalanishi, o'z salohiyatlari to'liq ro'yobga chiqarishi hamda mutaxassislik



yo'nalishlari bo'yicha yurtimiz rivoji va uning ravnaq topishiga munosib hissa qo'shadigan kadr bo'lishida eng katta tayanch vazifani bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli farmoni..
- 3.Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishida kredit sisitemasining o'rniva ahamiyati. Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: to'plam №3. Toshkent 2015. 52-b.
4. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.-Toshkent, TKTI, 2020.
5. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.
6. O'sarov D. Bugungi zamonaviy pedagogika fanining asosiy funksiyalari -Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior  
ISSN: 2037-4445 Vol 14, No. 1 (2023) 708 <https://rifanalitica.it>
7. European Commission ECTS Guide of 2009. Available at [https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide-2009\\_en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide-2009_en.pdf).